

BOSHLANG‘ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA IJODIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Hamidova Kamola Mamirovna

Bahtiyorova Hayotxon

Qo‘qon DPI talabasi

Qo‘qon DPI, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: mazkur maqolada ona tili darslarida ijodiy topshiriqlar haqida tushuncha berilib. Boshlang‘ich sinf ona tili darsligida ijodiy topshiriqlarni bajarish, va ijodiy topshiriqlar turlari haqida va DTS talablari haqida qisqacha ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy topshiriqlar, boshlang‘ich ta‘lim, DTS, zamonaviy ped texnologiya.

O‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti – o‘quvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir. Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida ta‘kidlaganidek, “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta‘lim va tarbiyadir” deb ta‘lim-tarbiya, ilm-fanning rivojlantirish masalalariga o‘z e‘tiborini qaratgan. O‘zbek xalq maqollarida keltirilishicha: “Tarbiya vijdon ishidir: ta‘lim berish esa fan ishidir. Biroq keyinroq kamolga yetgan insonda bilishning bu ikki turi bir-birini to‘ldiradi” deb ta‘limga oid ibratli so‘zlarni keltiribketgan. Darhaqiqat, insonning ko‘rki uni tarbiyasida va olgan ta‘limida namoyon bo‘ladi. Shavkat Mirziyoyev yosh avlodning tarbiyasiga juda yuqori baho berib, shunday ta‘kidlagan edilar: “Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so‘rasangiz, farzandlarimizni ta‘lim tarbiyasi, deb javob beraman degan edilar. Bu esa yosh avlodning tarbiyasiga jiddiy e‘tiborni talab qiladi. Yurtimizda yosh avlodni kamol topishi uchun ta‘lim sifatini yaxshilash uchun ham davlat ta‘lim standartlari loyhasi ishlab chiqilgan. Boshlang‘ich ta‘lim Davlat ta‘lim standartining “Kirish” qismida “Boshlang‘ich ta‘lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi”, – deb alohida ta‘kidlangan.

Boshlang‘ich ta‘lim oldiga qo‘yilgan bu kabi talablarni amalga oshirish ta‘lim mazmunini aniq belgilab olishni, o‘qitishga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Davlat ta‘lim standartida ta‘kidlanganidek, “Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida davlat va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talab”da ta‘lim sohalari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg‘unlik to‘la ta‘minlangan bo‘lmog‘i kerak. SHu jihatdan boshlang‘ich ta‘lim standartini belgilash ta‘lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang‘ich ta‘lim jarayonida yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish

bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirash, o'quvchilarning mustaqil fikrlashga o'rgatish, darslik ustida mustaqil ishlash asnosida nutuq madaniyatini oshirish imkoniyatini beradi.

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar qo'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Boshlang'ichi sinf o'quvchisida mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini shakllantirishi, ijodiy faoliyatning tarkib topishida ijodiy mazmundagi topshiriqlar yaxshi samara beradi. Boshlang'ich siflardagi ijodiy topshiriqlar o'quvchilarni doimiy ravishda mashg'ul bo'lishi bilan bog'lig'. O'quvchilarning amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarishda yuzaga kelovchi hayotiy vaziyatlardan foydalanish, ularni bajarish va tahlil qilish. Malalan: 1-sinfda bo'g'in ko'chirish qoidalari bilan tanishtirishda, bo'g'in ko'chirishining zarurligi misol tarzida keltiladi. Ya'ni sarkarda so'zining keying ikki bo'g'ini qatorda sig'may qoldi. Nima qilish kerak? savoli bilan murojat qilinadi. Yana 3-sinf ona tili darsligida rasmlar berilgan, yani katta bog' daraxtlarda mevalar va bolalar ularni terayotgani rasmi tushurilgan, o'quvchilar raslarga qarab fikrlash orqali hikoya tuzish kerak bo'ladi. Bu ham o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi. Ijodiy topshiriqlarni bajarishda quydagilarga amal qilish kerak: o'quvchilarga ma'lum bilimlar doirasidan o'zlariga yetishmayotganlarini aniq chegaralab olishlari, ya'ni noma'lum topshiriqlarni bilishlarini taqoza etadi. Ona tili darslarida ijodiy topshiriqlar o'quvchilarni tafakkur doirasini, og'zaki va yozma nutqini va mustaqil fikrlashga o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limi jarayonidagi ijodiy topshiriqlar tizimi muammoli suhbatlar, fikr yuritish isbotlash, umumlashtirish, tahlil kabi tafakkurini rivojlantiruvchi mashq hissoblanadi. Ona tili darslarida ijodiy topshiriqlarni ta'limga tadbiiq etishning hozirgi ahvolini o'rganish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, aksariyat boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy ishlar mohiyatini yetarlicha tushunmasligi, amaliyotda esa ijodiy topshiriqlardan kam foydalanilyotganligini ko'rsatadi. Ijodiy topshiriqlar o'quvchilarni topqirlikka ijod qilishga aqliy tafakkurning shaklanishida muhim vosita ekanligini e'tirof etish zarur.

FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqmiz bilan birga quramiz” asari.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. // Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997.
3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997.
4. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi // O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining axborotnomasi, 7-maxsus son. T.: Sharq, 1999.
5. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti // Boshl. ta’l. jurnali. Toshkent, 2005. №5. 5, 6, 8-9-betlar.
6. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi o‘quv dasturi // Boshl. ta’l. jurnali. Toshkent, 2005. №5. 21- 33 – betlar.
7. I. Azimova, K.Mavlonova S.Qurolov, Sh.Tursun, Z.Ro‘zmetova// Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi. Toshkent, 2022.